

O'quvchilarni Xalqaro olimpiadalarga tayyorlagan o'qituvchilarga "Xalq ta'lifi a'lochisi" ko'krak nishoni topshirildi



Xalqaro fan olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda faol ishtirok etgan 6 nafar o'qituvchiga Xalq ta'lifi vazirligi "Xalq ta'lifi a'lochisi" ko'krak nishonini topshirdi. Taqdirlanganlar qatorida Fanlar akademiyasi Matematika instituti katta ilmiy xodimi Rustam Turdibayev ham bor.

Rustam Turdibayevni ushbu mukofot bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan muborakbod etamiz hamda kelgusidagi faoliyatiga zafarlar tilaymiz. Muvaffaqiyatlar bardavom bo'lsin!